

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Tashmatova G.N.,
GDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik mahoratini rivojlantirish zaruratini tahlil qiladi. Ta'lim tizimining asosiy ustunlaridan biri sifatida o'qituvchilarning malakasi va kompetensiyalarini oshirish muhim ahamiyatga ega. Maqolada pedagogik mahoratning asosiy jihatlari, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi roli, pedagogik mahoratni rivojlantirish usullari va raqamli kompetensiyalar haqida so'z boradi. O'qituvchilarning doimiy malaka oshirishlari, amaliyot o'tashlari va innovatsion metodlarni qo'llashlari ta'kidlanadi. Ushbu tadqiqot ta'lim tizimini sifatli rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, o'qituvchilar, ta'lim tizimi, raqamli texnologiyalar, malaka oshirish, innovatsion metodlar, raqamli kompetensiyalar, amaliyot, mentorlik.

Аннотация: в тезисах анализируется необходимость развития профессионально-педагогических навыков будущих учителей. Повышение квалификации и компетентности учителей является одним из основных столпов системы образования. В статье рассматриваются основные аспекты педагогического мастерства, роль цифровых технологий в образовательном процессе, методы развития педагогического мастерства и цифровых компетенций. Особое внимание уделяется постоянному повышению квалификации преподавателей, стажировкам и использованию инновационных методов. Данное исследование способствует качественному развитию системы образования.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, учителя, система образования, цифровые технологии, профессиональное развитие, инновационные методы, цифровые компетенции, практика, наставничество.

Abstract: this article analyzes the need to develop professional pedagogical skills of future teachers. Improving the qualifications and competencies of teachers as one of the main pillars of the education system is of great importance. The article discusses the main aspects of pedagogical skills, the role of digital technologies in the educational process, methods for developing pedagogical skills and digital competencies. Continuous professional development of teachers, internships and the use of innovative methods are emphasized. This study contributes to the qualitative development of the education system.

Keywords: pedagogical skills, teachers, education system, digital technologies, professional development, innovative methods, digital competencies, practice, mentoring.

Respublikamiz ta'lim tizimini sifatli amalga oshirish jarayonida zamonaviy o'qituvchining kasbiy mahoratiga bo'g'liqdir. Yosh avlodni zamonaviy dunyo talablari darajasida o'qitish hamda tarbiyalash ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchilar amalga oshiradilar. Zamonaviy o'qituvchiga kasbiga mos, ya'ni sog'lom avlod uchun haqiqiy murabbiy bo'lish ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez hamda chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasi, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi insonlarga bo'lishi zarur.

Zamonaviy o'qituvchining asosiy maqsadi yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy – tarixiy an'analarga, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir. Zamonaviy o'qituvchini asosiy vazifalariga quyidagilarni misol keltirish mumkin: shaxsning aqliy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish uchun

imkoniyat yaratish; yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish talabalarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora rivojlantirib boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib– boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirishdnn iboratdir.

Ta'lim tizimi jamiyatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar esa bu tizimning asosiy ustunlaridan biridir. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik mahoratini rivojlantirish, ularning ta'lim jarayonida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur. Zamonaviy ta'lim talablariga javob berish, o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash uchun o'qituvchilar doimiy ravishda o'z malakalarini oshirib borishlari kerak.

1. Pedagogik Mahorat Nima?

Pedagogik mahorat — bu o'qituvchining ta'lim jarayonida o'quvchilarga bilim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatidir. Bu mahorat quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Nazariy bilimlar: Pedagogika, psixologiya, didaktika va boshqa fanlardan olingan nazariy bilimlar.
- Amaliy ko'nikmalar: Dars o'tish, o'quvchilar bilan muloqot qilish, baholash va tahlil qilish qobiliyatlari.
- Ijtimoiy kompetensiyalar: O'quvchilar bilan munosabatlar o'rnatish, jamoaviy ish olib borish va ijtimoiy masalalarda faol bo'lish.

2. Raqamli texnologiyalar va ta'lim

Zamonaviy davrda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Internet, onlayn platformalar, interaktiv vositalar va mobil ilovalar o'qituvchilarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida bo'lajak o'qituvchilar quyidagi afzalliklardan foydalanishlari mumkin:

- Resurslarga erkin kirish: O'qituvchilar va talabalar turli manbalardan ma'lumot olish imkoniyatiga ega.
- Interaktiv darslar: Interaktiv vositalar yordamida darslarni yanada qiziqarli va samarali o'tkazish mumkin.
- O'z-o'zini o'rganish: Onlayn kurslar va vebinarlar orqali o'qituvchilar o'z malakalarini mustaqil ravishda oshirishlari mumkin.

3. Pedagogik Mahoratni Rivojlantirish Usullari

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish uchun bir nechta usullar mavjud:

- Tayyorlov dasturlari: Universitetlarda pedagogik tayyorgarlik dasturlari orqali nazariy va amaliy bilimlar berilishi kerak.
- Amaliyot: O'qituvchilar amaliyotda tajriba orttirishlari uchun maktablarda stajirovka o'tashlari zarur.
- Mentorlik: Tajribali o'qituvchilar yangi avlod o'qituvchilariga maslahat berib, ularning rivojlanishiga yordam berishlari lozim.
- Doimiy malaka oshirish: O'qituvchilar uchun muntazam ravishda seminarlar, treninqlar va konferensiyalar o'tkazilishi kerak.

4. Raqamli Kompetensiyalar

Raqamli kompetensiyalar — bu zamonaviy ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar raqamli texnologiyalarni samarali qo'llay olishlari, o'quvchilarga raqamli ko'nikmalarni o'rgatishlari lozim. Bu kompetensiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Raqamli aloqa: O'qituvchilar raqamli platformalarda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini egallashlari kerak.

- Ma'lumotlarni tahlil qilish: O'qituvchilar ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va ulardan foydalanishni bilishlari zarur.

- Kreativlik va innovatsiya: Raqamli texnologiyalar yordamida yangi g'oyalarni amalga oshirish va darslarni yanada qiziqarli qilish.

Zamonaviy o'qituvchining kasbiy mahorati va kompetensiyasi pedagogik mahoratiga ta'rif bersak: Bilimi va aqlining yuksak ko'rsatkichi bu – uning madaniyatli ekanidir. O'z fanini chuqur bilishi. Pedagogik va psixologik bilimining puxtaligi va undan dars jarayonida to'liq foydalana olishi. O'quv tarbiyaviy jarayonga oid talablarga rioya qilishi. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lay olishi. Axborot- kommunikatsion texnologiyalarni bilishi va ulardan unumli foydalana olishi. Pedagogik mahorat o'qituvchining pedagogik faoliyati davomida yuzaga keladi va takomillashib boradi.

Zamonaviy o'qituvchidan quyidagi burch va mas'uliyat talab qilinadi:

1. O'qituvchi, eng avvalo, mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir.

2. O'qituvchi tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehri, xis-tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning mehri, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak.

3. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

4. Zamonaviy o'qituvchidan ilm-fan yutuqlari, texnika va texnologiyalardagi yangiliklardan xabardor bo'lib borishi kerak.

5. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi lozim.

6. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'limtarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.

7. O'qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

8. O'qituvchi ijodkor, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.

9. O'qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqat, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart.

10. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi va nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan holi adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; xikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi lozim.

11. O'qituvchining kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, xatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.

12. O'qituvchi ta'lim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta'lim sohasida olib borilayotgan isloxlarning eng faol ishtirokchisidir.

13. O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmashligi shart. Shuning uchun kasbiy faoliyatida pedagogik mahoratning bir qator sifatlarini uzluksiz tarkib toptirib borishi zarur.

14. O'qituvchi, eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mustaqil ravishda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik mahoratini rivojlantirish zarurati bugungi ta'lim tizimining eng muhim masalalaridan biridir. Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar yordamida o'qituvchilar o'z malakalarini oshirib borishlari, shuningdek, zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Bu jarayon nafaqat o'qituvchilarning, balki butun ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob.– Toshkent: Ilm-Ziyo, 2012-y.

3. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013-y.

5. Tashmatova G., Raqamli texnologiyalar muhitida bo'lajak o'qituvchilarning Kasbiy pedagogik mahoratini oshirish metodikasini takomillashtirish., Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Dekabr 2024 yil. 683-688 bet. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/57449/57495>

6. Tashmatova G., Raqamli texnologiyalar muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini oshirish., Home /Archives /Vol. 2 No. 20 (2023): THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH /Articles. <https://interonconf.org/index.php/taare/issue/view/167>

7. Tashmatova, G. (2025). Raqamli texnologiyalar muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik mahoratini oshirish imkoniyatlari. Modern science and research, 4(4), 9–13. retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/78213>